

ABDULLA QODIRIYNING SO'Z QO'LLASH MAHORATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7878177>

Karabayeva Sohiba

*Guliston davlat universiteti Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi
2-kurs magistranti*

Annotatsiya: *Maqolada o'zbek adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri, o'zbek romanchilik maktabining asoschisi Abdulla Qodiriyning asarlarida so'z qo'llash mahorati adib asarlarida namoyon bo'lishlari aks etgan.*

Kalit so'zlar: *Mehrobdan chayon, O'tkan kunlar, Qodiriy, o'zbek adabiyoti, tasviriy mahorat.*

XX asrda mumtoz adabiyotning nazariy an'analari asosida yaratilgan buyuk asar Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romani hisoblanadi.

Roman so'zboshisida muallif romanning yozilishi xususida to'xtalib, uni: «yangi zamon ro'monchilig'i bilan tanishish yo'lida kichkina bir tajriba, yana to'g'risi bir havasdir», degan bo'lsa ham, o'tgan bir asr davomida o'zbek adabiyotida yaratilgan biron roman «O'tkan kunlar» darajasiga chiqa olmagan ta'kidlanadi. Bu esa asarning zuvalasi haqiqatda o'ta pishiq, ma'no qatlamlariga boy, muallifning ijodiy konsepsiyasi mukammal asoslarga qurilganidan dalolat beradi.

Yozuvchi "O'tkan kunlar" asarida Otabekni tasvirlar ekan uning qiyofasi kitobxon ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. Og'ir tabiatlik, ulug' gavadalik, ko'rkam va oq yuzlik, kelishkan, qora ko'zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabza urgan bir yigit. Bu tasvirning o'zidayoq kitobxon Otabekning siyrati va surati naqadar ko'rkamligiga ishonadi. Abdulla Qodiriy tomonidan tasvirlangan bir malak Kumushbibi tasviri esa kitobxonni tamomam lol qilib, o'z ortidan ergashtiradi.

"... uyg'oq yotgan bizni ko'ramiz. Uning qora zulfi, par yostiqlarning turlik tomoniga tartibsiz suratda to'zgi'ib, quyuq jingilla kiprik ostidagi ko'zlari bir nuqtaga tikilgan - da, nimadir bir narsani ko'rgan kabi ... qop-qora kamon, o'tib ketgan nafis, qiyiq qoshlari chimirlaganda, nimadandir bir narsadan cho'chigan kabi to'lgan oydek g'uborsiz oq yuzi biroz qizillig'ga aylangan-da, kimdandir uyalg'an kabi ... shu vaqt ko'rpani qayirib ushlagan oq nozik qo'llari bilan latib burnining o'ng tomonida, tabiatning nihoyatda usta qo'li bilan qo'ndirilgan qora xolini qashidi va boshini yostiqlardan olib o'lturdi ...".[1]

Bu tasvirlarni o'qigan har bir kitobxon ko'z o'ngida Kumushbibi siymosi, uning go'zalligi oldida bir oz hayajonga tushadi va satrlar ustida qayta-qayta ko'z yugurtiradi. Kitobxon asarni o'qir ekan, yozuvchining tasvir mahoratiga tan beradi. Chunki asarda voqealar rivoji yuksak mantiqiy izchillik bilan ko'rsatilganligiga qaramay, har bir obraz o'z tabiat mantig'iga mos harakatlarnigina qiladigan obrazlarning har biri o'z darajasiga mos keladigan til bilan ta'minlanganligiga, timsollar faoliyatida sun'iylikl

zo'raonlik sezilmasligi o'quvchini befarq qoldirmaydi . Adibning buyukligi, daho sa'natkorligi shundaki, na asar voqeasi rivojida , na obrazlar xatti harakatlari tasvirida, na muallif bayonida yasamalik , taxminga yo'l qo'ymaydi. Yozuvchining qalamidan to'kilgan tasvir hayotning o'zidagidan ham mukammalroq, tabiiyroq, asosliroqdir.

Bu o'rinda asar muvaffaqiyatining ustuni bo'lgan birgina jihat xususida qisqacha so'z yuritmoqchimiz. Asardagi so'z, ibora va jumlarlar shu qadar pishiq, tabiiy, ma'nodor va xalqona tarzda yaratilganki, ular xalqning tilidan mustahkam o'rin olgan, ayrimlari zarbulmasalga aylangan. So'zning ma'no ko'lami va sig'imliligi, bir tomondan, aqlni hayron qoldiradigan darajada keng bo'lsa, ikkinchi tomondan, zehnni o'ziga to'la jalb qiladigan hamda bir marta o'qigandayoq esda qoladigan darajada mahorat bilan ifoda etilgan. Bu fikrni nafaqat so'z, balki asarni tashkil etuvchi har bir nuqtaga nisbatan qo'llash mumkin.

Masalan, asarning «Kutilmagan baxt» qismida Otabek va Kumushning ilk muloqoti qalamga olingan. Birinchi suhbatda Kumushning ilk savoli asar voqeligidagi juda ko'p ma'nolarni o'zida aks ettirgani bilan e'tiborlidir. Bu holat asarda shunday ifodalanadi:

«...Kumushbibi shu choqg'acha qaramag'an va qarashni ham tilamagan edi. Majburiyat ostida, yov qarashi bilan sekingina dushmaniga qaradi... Shu qarashda birmuncha vaqt qotib qoldi. Shundan keyin bir necha qadam bosib Otabekning pinjiga yaqin keldi va esankiragan, hayajonlang'an bir tovush bilan so'radi:– Siz o'shami?»[2]

Ikkitagina so'zdan iborat ushbu jumla savol beruvchi nazarda tutgan barcha maqsadlarni to'liq ifoda etayotgani bilan e'tiborlidir. Asar qonuniyatlarini o'rganishda mumtoz adabiyotimizda o'ziga xos o'rin egallagan, badiiy asar nazariy asoslarini belgilab bergan balog'at ilmi Abdulla Qodiriy yashagan davr uchun yetakchi xususiyat sanalgan. Bu ilm sohasida yaratilgan asarlar o'sha paytdagi an'anaviy ta'lim tizimida darslik sifatida o'qitib kelingan. VIII asrdan boshlab turli ilmlar doirasida chuqur o'rganila boshlagan hamda XII asrga kelib mustaqil fan sifatida e'tirof etilgan balog'at ilmi maqsadni o'z o'rni va holatiga eng muvofiq tarzda eng go'zal so'zlar bilan yetkazib berishga asoslanadi. Unga ko'ra, kam so'zlar vositasida ko'p ma'nolarni ifoda etish usuli balog'at ilmining uchta tarkibiy qismlaridan biri – ilmi maoniyning «iyjoz» bo'limida o'rganiladi. «Iyjoz» maqsadni imkon qadar eng kam so'zlar bilan anglatish barobarida nutqning ta'sirchanligini oshirish, ortiqcha bayondan chekinish, so'zlovchining o'ziga xos mahoratini namoyish etish kabi vazifalarni bajaradi. Shuningdek, maqsadning ayrim jihatlarini so'z bilan to'la-to'kis ifodalamasdan, zarur o'rinlarda uni yashirin tutish, lekin turli dalillar orqali ishora qilib o'tish yo'lidan boradi. Bu esa muallifning matndagi maqsadini anglab olishda o'quvchi e'tiborini yanada kuchaytiradi. Matnga o'tkir zehn va o'ziga xos farosat bilan yondashishni talab qiladi. Bir so'z bilan aytganda, o'quvchining badiiy did va saviyasini, badiiy tafakkurini o'stirishga xizmat qiladi. Shu va shu kabi o'nlab jihatlarni nazarda tutib, balog'at ilmining peshqadam olimlari «balog'at bu iyjozdir», degan konseptual xulosaga kelishgan.

Yuqoridagi misolda savol jumlasini ikkitagina soʻzdan tashkil topgan boʻlsa-da, oʻz maqsadini toʻla ifoda etuvchi mukammal bir gap tusini olgan. Balogʻat ilmi qoidalariga koʻra, maqsadni anglatish uchun bayon qilinayotgan ifoda tugal shaklga ega boʻlishi, yaʼni gap boʻlishi zarur. Har qanday gap matnda taqdiran yoki haqiqatan mavjud boʻlgan ega va kesimdan tashkil topadi. Baʼzan esa, ularga ikkinchi darajali boʻlaklar va boshqa omillar ham qoʻshilishi mumkin. Yuqoridagi gap savol beruvchining maqsadini savol beriluvchiga eng qisqa, eng ravon va eng tushunarli tarzda ifoda etgan. Shu bilan birga, asarda oldin tilga olinmagan, muallif oʻquvchidan mahorat bilan yashirib kelayotgan katta bir maʼno – Otabek va Kumushning «ilk uchrashuv»iga zimdan dalolat qilyapti. Muallif Otabekning Margʻilon borganidan soʻng ancha oʻzgarib qolgani, bu haqda soʻralganda sababni «Margʻilon havosi yoqmagan»likka olgani, lekin bundan ketishga ham chogʻlanmagani, oʻy ogʻushida tilidan chiqqan baʼzi soʻzlarining asl sababchisini ayni mana shu savol berish asnosida oʻquvchiga ayon qiladi. Asarning shu joyigacha muallif Otabek va Kumush oʻrtasidagi «ilk uchrashuv» bilan bogʻliq asosiy voqeani mahorat bilan yashirib kelgani oʻquvchida oʻzgacha bir qiziqish uygʻotadi. Bunday tasvir usuli muallif mahoratining yana bir jihati sifatida namoyon boʻladi.

Shuningdek, savol jumlasining ayni paytdagi holat taqozosi (muqtazoi hol)ga toʻla muvofiqligi shunda koʻrinadiki, savol beriluvchi (Otabek)da ushbu qisqa va bir qarashda anglashilmasday taassurot uygʻotadigan savol jumlasini hech bir anglashilmovchilik, ortiqcha soʻroq va taajjubga oʻrin qoldirmaydi.

Savol beriluvchi xuddi shunday soʻroqqa tutilishini kutgan kishi sifatida savolga xuddi savol beruvchi kabi qisqa va ixcham jumla bilan javob qaytaradi:

«– Men oʻsha, – dedi bek. Ikkisi ham bir-birisiga beixtiyor termulishib qoldilar...»

Muallif bu oʻrinda qahramonining yuksak darajadagi balogʻat bilan berilgan savoliga huddi oʻziday mohirona javobni muqobil keltirgan. Savolda boʻlgani kabi javobda ham ikkita soʻz ishlatilgan boʻlsa-da, tinglovchi (Kumush)ning idrok etishida hech qanday muammo yoki nuqson tugʻdirmaydi. Demak, «javob jumla» «savol jumla» bilan balogʻat ilmi talabiga koʻra, teng kuchga ega.

Bir qarashda matndagi maʼnolarning zich yoki ixchamlashuvi, soʻz, ibora, birikma, jumalarning qisqartirilishi maqsadni anglashda noqulaylik keltirib chiqarishi mumkin. Lekin balogʻat ilmidagi «iyjoz» usulining mohiyati shundan iboratki, maʼnoning zichligi, soʻz va ifodaning qamrovliligi, ixchamlashtirilgani yoki zarur holatda qisqartirilgani maqsadni anglashda noqislik kelib chiqishiga emas, aksincha, maqsad ifodasida muallifning yetuk mahorat egasi ekaniga, kam soʻzlar bilan koʻp maʼnolar ifodalay olishiga dalolat qiladi.

Yuqorida keltirilgan savol-javobdagi «oʻsha» hodisasining batafsil bayoni – balogʻat istilohi bilan aytganda «itnob»i – asarda bir oz keyinroq keltirilgan. Bu bayon qariyb bir sahifadan iborat.

Adibning mahorati batafsil ifoda etilganda bir sahifaga jo boʻladigan katta maʼnoni oʻrni kelganda bor-yoʻgʻi birgina soʻz (oʻsha) bilan ifoda eta olganidadir. Bunga

qadar Abdulla Qodiriy sabab-voqea tafsilotini atayin yashirganki, natijada ushbu «iyjoz jumla» romandagi bir butun ishq konsepsiyasi markazini egallagan.

Muallif badiiy mahoratining yaqqol ko'rinishi bo'lgan bunday holatlarga asarda juda ko'p duch kelamiz. Ularning ba'zilarida keltirilgan «iyjoz»ning batafsil bayoni («itnob»)ni muallifning o'zi to'liq keltirib o'tsa, yana ba'zilarida «iyjoz»ning batafsil ma'no ko'lamini ochish va idrok etishni o'quvchining topqirligi, badiiy farosati va zehninga havola qiladi. Ayrim holatlarda esa batafsil ma'noga faqatgina ishora qilish bilan cheklanadi. Asarning turli o'rinlarida Otabek tilidan aytilgan «mozoristonda «hayya alalfalah» xitobini kim ham eshitar edi», «...keliningiz qarshisida meni bir jonsiz haykal o'rnida tasavvur qilingiz»; Yusufbek hoji nutqidagi «Bizning kattadan-kichigimizning topqan-tutqanimiz faqat bosh olish» yoki Fuzuliy devoni haqida so'z ochgan Kumushning dabdurustdan «Men rozi, men ko'ndim» deyishi, keyinroq «meni unutmaysizmi?» deya bergan savoli; usta Alimning Shokirbekdan «Xoti-ningiz-ga muhabbatingiz bormi?» savoliga «yo'q» javobini olgach, kutilmaganda «yaxshi ekan» deyishi, yana shu qahramonning Saodat bilan fotiha qilingach, «Saodat, eshitdingmi, maylimi?» so'rog'i va unga javob tarzida aytilgan «Osh yemay ketasizmi?» javobi, majnuna Zaynabning o'zini «Men Kumush!..» deb tanitishi, unga javoban berilgan so'nggi hukm («Ket mundan!») jumalari qatlarida ham muallif maqsadni ifoda etishda «iyjoz» usulidan mahorat bilan foydalanganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbeklar turmushini, tarixini, tilini, urf-odatlarini yaxshi bilgan Abdulla Qodiriy ulardan o'z asarlarida juda unumli va o'rinli foydalandi. Adibdan qolgan muhtasham adabiy merosda o'zbek adabiy tilining go'zalligi, nafosati, tasvir va ifoda imkoniyatlari aynan amaliyotda o'z aksini topdi. Shu bilan birga Abdulla Qodiriy ba'zan filolog olimlarga xos qimmatli adabiy-nazariy qarashlari bilan ham o'zbek adabiy tilining takomiliga xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.Qodiriy. "O'tkan kunlar"-T., "Sharq" nashriyoti-1914 y
2. <https://beproclub.com.pl/abdulla-qodiriy-o-tgan-kunlar-kitob/>